

modernizatsiya qilish, o‘qitish sifatini oshirish va kelajakda raqobatbardosh, zamonaviy fikrlaydigan o‘qituvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon, 1997. p.50
2. Hall E.T. The Silent Language. New York, 1976. p.16
3. Hofstede G. Cultures and Organizations. 2010. p.6
4. Hymes D. “On Communicative Competence.” Sociolinguistics, 1972. p.24
5. Canale M., Swain M. “Theoretical Bases of Communicative Approaches.” Applied Linguistics, 1980. p.40
6. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford, 1982. p.35
7. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach, 2021. p.23
8. Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard University Press, 1978. p.86
9. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence. London, 2018. p.50
10. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. Boston, 2019. p.72
11. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax 2006.
12. G‘aybullayev N. Pedagogika asoslari. Toshkent, 2010. p.20
13. Xoliqov B. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2018. p.45.
14. Xoshimova O. PRAGMATIC ASPECTS OF COLOR EXPRESSING LEXEMES: A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK // Journal of Advanced Linguistic Studies. – New Delhi, 2025. – Vol. 12. – № 2. – P. 1335–1350. ISSN: 2231-4075.

INGLIZ TILI DARSLARIDA TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Usmonjonova Shodiyaxon Alisher qizi

Namangan State Pedagogical institute

Foreign Languages Department

A first -year student of Foreign Languages Department

Email: shodiyausmonjonova635@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida texnologiyalardan samarali foydalanishning afzalliklari yoritiladi. Interaktiv mashqlar, videodarslar, ovozli topshiriqlar va jonli suhbatlar

orqali o‘quvchilarning bilimini samarali oshirish imkoniyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada texnologiyalarning moslashuvchan jadval, individual yondashuv va keng resurslarga kirish kabi imkoniyatlari ta’kidlanib, kelajakda texnologik ta’limning yanada keng qo‘llanilishi kutilayotgani qayd etilgan.

Аннотация: В данной статье освещаются преимущества использования технологий на уроках английского языка. В ней показан потенциал эффективного обучения студентов посредством интерактивных упражнений, видеоуроков, аудиозаданий и живых бесед. В статье также освещаются возможности, которые технологии предоставляют студентам, такие как использование широкого спектра ресурсов в дополнение к индивидуальному подходу, и отмечается, что в будущем ожидается более широкое использование технологического образования.

Abstract: This article highlights the benefits of using technology in English lessons. It shows the potential for effective student learning through interactive exercises, video lessons, audio tasks and live conversations. The article also highlights the opportunities that technology provides to students, such as the use of a wide range of resources in addition to an individual approach, and notes that technological education is expected to be used more widely in the future.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiya, globallashuv, raqamli ta'lim, animatsiya va grafik materiallar, samaradorlik.

Kirish: So‘nggi yillarda Respublikamizda xorijiy tillarni shuningdek ,ingliz tilini chuqur o‘rgatish bo‘yicha katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident farmonlari ham bu borada aynan yosh avlodning tilga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qo‘llab quvvatlash yo‘lidagi asosiy poydevor bolib hizmat qilmoqda. Shu bilan birga, talabalarga chet tillari, xususan, ingliz tilini - ayni damda global kommunokatsiya, ilm-fan, internet va biznesda keng qo‘llanilib kelinayotgan tilini o‘rgatishda ilg‘or xorij tajribalari, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida keng qo‘llanilayotgan zamonaviy usul va modellarga asoslangan metodikalari asosida o‘qitish muhim deb qaralmoqda. Chunki zamonaviy ta’limda darsning samarasi XXI asr texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan holda uzviy integratsiyani taqozo etmoqda va bu jarayon ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Jumladan:

- darslarning samaradorligini ochiradi
- kelajakda onlayn va raqamli ta’limning yanada kengroq rivojlanishiga turtki bo‘lib hizmat qiladi.
- O‘quvchilarni raqamli dunyo bilan hamnafas bo‘lishiga sharoit yarata oladi

Shuningdek, raqamli ta’lim platformalari, interaktiv dasturlar va onlayn resurslar yordamida talabalarning

- tinglash (turli xildagi audio podkastlar, video darsliklar)
- tushunish (turli ijtimoiy saytlar orqali ko‘plab ma’lumotlar topish va chuqurroq o‘rgana olish)
- muloqot qilish (chet ellik nativ speakerlar hamda mutahassislar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri suhbatlashish imkoniyati) ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, ilg‘or xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va masofaviy o‘quv modullari samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Talabalarning kasbiy auditiv kompetensiyasini rivojlantirish ayniqsa muhimdir, chunki bu ularning professional sohada muvaffaqiyat qozonishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar ayniqsa multimedia texnologiyalari

14. animatsiya va grafik materiallardan iborat bo‘lib, ular o‘quv jarayonini yanada jonli va qiziqarli qiladi. Masalan, ingliz tilidagi videodarslar yoki suhbatlar orqali talabalar real nutq muhitini his qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning talaffuzini yaxshilash, yangi so‘zlarni tezroq o‘zlashtirish hamda tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

15. tinglash va nutq bilan bog‘liq mashqlarni individual ritmda o‘tkazish imkonini beradi xususan, til o‘rganishga qiyinchilikka uchraydigan o‘quvchilar uchun o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida individual dars jarayonlari

- xatolarni darhol ko‘rsatadi hamda ularni tuzatishga yordam beradi
- takroriy mashqlarni qulaylashtiradi o‘rganilayotgan ma’lumotlarni mazmunini yaxshiroq anglashga, kengroq tushunishga ko‘mak bo‘la oladi.

Texnologiyalardan foydalanishda tadqiqot jarayonlari

Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonida hamkorlik muhitini shakllantirish, o‘quvchilarning jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda turli loyiha va guruhli faoliyatlarda faol ishtirok etishlarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday imkoniyatlar turli texnologik tizimlar va raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi.

Masalan: – O‘rganish va tahlil qilish.

Raqamli texnologiyalar o‘qitish va tahlil qilish jarayonlarini yanada samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar o‘quv jarayonini tahlil qilish asosida talabalarning bilim darajasini aniqlash, ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini baholash hamda ta’lim samaradorligini oshirish uchun turli ma’lumotlar bazalaridan

foydalanadilar. Bunda talabalarga mos o‘quv materiallari, amaliy topshiriqlar va savollar taqdim etiladi.

Shuningdek, mikro mashqlarni ishlab chiqish, turli test va savollarni tuzish, ma’lumotlarni qayta takrorlash hamda ularni tahlil qilish jarayonlari ham raqamli texnologiyalar yordamida samarali amalga oshiriladi. Natijada o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish hamda ta’lim sifatini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli texnologiyalar orqali yosh avlodni kasbga yo‘naltirish.

Bugungi raqamli asrda texnologiyani bilish muhim mahoratdir. Ta’limga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va XXI asr ishchi kuchida muvaffaqiyatga erishish uchun muhim bo‘lgan boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishlari mumkin. Bular XXI asrda o‘quvchilarning bilim olishi va o‘qituvchilarning dars berish usullarini qayta shakllantirayotgan bugungi kunda mavjud bo‘lgan keng ko‘lamli ta’lim texnologiyalariga bir nechta misollardir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, globallashuv davrida xorijiy tillarni o‘rganish va rivojlantirish jarayonida zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalarining roli juda muhimdir. Ular talabalarni tilshunoslik faoliyatiga yo‘naltirishda hamda xalqaro talablarga javob bera oladigan malakali mutaxassislar sifatida shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar an’anaviy ta’lim usullarini yangilab, o‘qitish jarayonini barcha yoshdagi o‘quvchilar uchun yanada qulay, samarali va qiziqarli qiladi. Bundan tashqari, ular o‘qituvchilarga o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatish, o‘quv natijalarini baholash hamda yanada interaktiv ta’lim muhitini yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Saydalieva N.F. Chet Tillarini O‘qitishda Kommunikativ Yondashuv //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.

Usmonova Durdona "RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYASI VOSITALARINING ZAMONAVIY TA’LIMDAGI O‘RNI" maqolasi.

Avezova, D., Sobirova, F., Sotiboldiyev, A., Muminjonova, S., Tursunboyeva, M., Sobirova, R., ... & Kibriyev, B. (2026). Exploring Genetic and Epigenetic Influences on Language Acquisition and Cognitive Development. *Genetics and Molecular Research*, 25(1).

S. M. (2025, December). FLIPPED CLASSROOM AS A TOOL FOR PROMOTING SELF-REGULATED LEARNING IN HIGHER EDUCATION. In International Conference Platform (No. 6, pp. 187-190).

Shaxlo, M. M. (2025). DESIGNING AN ENGLISH FOR BUSINESS PURPOSES (EBP) COURSE: A TASK-BASED AND PROBLEM-BASED APPROACH FOR PRE-INTERMEDIATE

BUSINESS PROFESSIONALS. PROSPECTS OF TEACHING ENGLISH FOR PROFESSIONAL PURPOSES IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: PROBLEMS AND SOLUTIONS, 518-525.

qizi Nosirova, S. Y., & Umarjonova, S. (2025, December). THE ROLE OF COMICS IN TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS. In International Conference Platform (No. 6, pp. 171-172).

INNOVATIVE APPROACHES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: METHODS AND EFFECTIVENESS

Boydedayeva Muxtasar Sayfiddin qizi

Namangan State Pedagogical institute

A 4th year student of Foreign Languages Department

Scientific supervisor: Nosirova Shahlo Yoqubjon qizi

Email: nosirovsohibjon7@gmail.com

Abstract. In recent years, the field of foreign language education has undergone significant transformation due to the integration of innovative teaching approaches and modern pedagogical technologies. Traditional methods often focus on memorization and translation, which may not fully develop learners' communicative competence. Therefore, modern educators apply innovative strategies such as communicative language teaching, task-based learning, gamification, and technology-assisted learning. This study analyzes these approaches and evaluates their effectiveness in improving students' language skills and motivation. The findings indicate that innovative teaching methods significantly enhance student engagement and language proficiency.

Keywords: foreign language teaching, innovative methods, communicative approach, technology in education, language learning

Annotatsiya. So‘nggi yillarda chet tillarini o‘qitish sohasi innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etilishi natijasida sezilarli darajada rivojlanmoqda. An‘anaviy o‘qitish usullari asosan grammatik qoidalarni yodlash va tarjimaga asoslangan bo‘lib, ular o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini to‘liq rivojlantira olmaydi. Shu sababli zamonaviy ta‘limda kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan o‘qitish, gamifikatsiya hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tadqiqot mazkur metodlarning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: chet tilini o‘qitish, innovatsion metodlar, kommunikativ yondashuv, ta‘lim texnologiyalari, til o‘rganish

Аннотация: В последние годы обучение иностранным языкам претерпело значительные изменения благодаря внедрению